

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG Yulduzi

№47 (66380)
2002 yil
18 noyabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

Ona jaji o'g'lini yoniga chaqirdi va savol bera boshladi: «O'g'lim, menga ayt-chi, katta bo'lganingda kim bo'lmoqchisan?»

- Katta bo'lganimda kattakon posbon bo'laman. Vatanimni


Vatan tinch - yurt obod

yuzlandi. Onasining ko'zlaridagi yoshni ko'rib ko'ngli buzildi.

- Oyi, nega xafa bo'lyapsiz?

- Yo'q o'g'lim, xafa bo'layotganim

ENG OLIY TILAK



«ASKAR AKAMGA»

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi

118 - maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi Dilrabo DO'STQOBILOVA
chizgan rasmini shunday nomlabdi. Multifilm qahramonlarini aks ettirgan
rasmlarini «Bizning to'garak» sahifamizda tomosha qilishingiz mumkin.

qo'riqlayman.

Ona bog'chadan tili burro bo'lib qaytgan o'g'lini bag'riga bosib:

- Vatanningni kimlardan qo'riqlaysan?
- deb so'radi.

O'g'il hozirjavoblik bilan:

- Vatanimni qo'rqqoq, nokas, nomardlardan qo'riqlayman, - dedi ishonch bilan.

Ona o'g'lining javobidan behad suyundi va ko'zlaridan yosh qalqidi...

Yillar o'tib bolakay do'stlari qatori Vatan himoyasiga otlandi. Tengdoshlari qatorida poyezd tomon oshiqarkan, onasiga yana bir bor

yo'q, bu yoshlar sevinch, faxr yoshlaridir. Chunki sen Vatanni himoya qilishdek sharaflı burchni o'tash uchun ketyapsan. Zamonamiz tinch. Ana shu tinchlikning chinakam qo'riqchisi bo'l. Sening mard, jasur bo'lib ulg'ayganingdan faxrlanaman. Vatanni onangni asragandek asra. Hech qachon nomardlar oldida bosh egma! Onaning tilagi bo'l. Onaning eng oliy tilagi!

Qimmatoy

ABIDDINOVA,

Andijon viloyati, Buloqboshi

tumanidagi 3 - maktabning

9-sinf o'quvchisi.

Qo'ng'iroq



**HAR BIR SINFGA
«TONG YULDUZI»
KIRIB BORADI,**

- deydi Buxoro viloyati xalq ta'limi bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Zulfiya NAVRO'ZOVA.

- Viloyatimizda 530 ta maktab bor. Ularda 340 ming nafar o'quvchi ta'lim-tarbiya oladi.

Ayni paytda maktablarimizda 2003 yil uchun gazeta va jurnallarga obuna bo'lish qizg'in davom etyapti. O'tgan yili o'quvchilarimiz «Tong yulduzi» gazetasiga birinchilar qatorida obuna bo'lishgan edi. Bu yil ham ular bo'shashmaydilar, deb o'ylayman. Bu borada G'ijduvon, Kogon, Jondor, Vobkent tumanlaridagi maktab o'quvchilari faol harakat qilishyapti.

Bu yil ham o'quvchilarimiz paxta terishda ota-onalariga yaqindan yordam berdilar. Ayrim o'quvchilar tergan paxtalaridan tushgan mablag'lariga «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldilar.

Viloyatimizda 417 ta qishloq maktablari mavjud. Ularni ijtimoiy himoyalash maqsadida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga maktab kutubxonalarini gazeta va jurnallar bilan ta'minladik.

Bu yil viloyatimizga «Tong yulduzi» gazeta'si uchun 4295 ta obuna bo'lish rejalashtirilgan.


340 ming o'quvchisi bor Buxoroda bolalar gazetasiga obuna qilishning bunday rejalashtirilishi juda uyatli xol. Hech bo'lmasa har o'n o'quvchiga bir gazeta to'g'ri kelishi kerak. Har tomonlama kamol topayotgan zukko farzandlarimiz o'z gazetalarini uzluksiz o'qib borishlari uchun imkoniyat topamiz. Va bu borada boshqa viloyat o'quvchilariga ibrat bo'lamiz.

Konstitutsiyamizni o'rganamiz



Avval xabar berganimizdek, Respublika ta'lim markazining ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan 3- sinf o'quvchilari uchun «Konstitutsiya alifbosi» darsligi bugun maktab o'quvchilari qo'lida. Darslik O. Karimova tomonidan tuzatilgan va to'ldirilgan

qilish O'zbekiston Respublikasidagi har bir fuqaroning burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar», deyiladi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-



Vatan taqdiri har bir insonning taqdiridir. Bu gapni takror va takror aytgimiz kelaveradi.

Vatanni asrash va unga munosib farzand bo'lish barchaning muqaddas burchidir. Buning uchun esa ona yurtini sevish, hayotimizning asosiy qomusi bo'lmish O'zbekiston Konstitutsiyasini mukammal bilish va albatta unga so'zsiz itoat qilish kerak. Bu boradagi savodxonlikni oshirib borishda «Konstitutsiya alifbosi» darsi o'quvchilarga yaqindan yordam beradi.

VATAN TAQDIRI - BIZNING TAQDIR



qayta nashri hisoblanadi. O'quvchilar darslik bilan yaqindan tanishar ekanlar, Vatanni sevishga, tabiatni


asrab- avaylashga, huquq va burch tushunchalarini tushunishga o'rganib boradilar.

Bugun «Konstitutsiya alifbosi» darsligidagi «Vatanim- jannatmakon O'zbekiston» sahifasiga to'xtalamiz.

«O'zbekiston Respublikasini himoya

moddasida.

Vatan bu muqaddasdir. Uni har birimiz sevamiz. Vatanni himoya qilish esa



Respublikamiz fuqarolarining burchidir. Har bir sog'lom o'g'il bola 18 yoshga to'lganida Qurolli Kuchlarda xizmat qilib, el-yurt

oldidagi burchini bajaradi. Bizning Respublikamiz o'z huquqini, xalqini, unung boyliklarini, ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilish uchun yetarli darajada kuchli qurolli kuchlarga ega. Bu haqda O'zbekiston Konstitutsiyasining 126- moddasida ham aytib o'tilgan. «O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega».

O'quvchilar avvalo o'zini, qolaversa, yurtini himoya qilish uchun

sog'lom, baquvvat va bilimdon bo'lishlari shart. Buning uchun sport bilan doimo shug'ullanib, o'zini chiniqtirib borishlari kerak. Sog'lom, chiniqqan bolaning fikrlari, qilayotgan ishlari ham sog'lom, deb bekorga aytmaymiz-da.

Aziz o'quvchilar, qo'lingizdagi darslik huquqiy bilimingizni oshirib boradi va hamisha yaxshilikka va yaxshilarga ergashtiradi. Biz bunga ishonamiz.

Feruza ODILOVA.

HAYOTDA QOQILMAYDILAR

Bu yil O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganiga 10 yil to'ladi. Shu munosabat bilan, bizning maktabimizda ham Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan katta tadbir bo'lib o'tdi. Biz o'quvchilar qonunlarimizni puxta o'rganish bilan birga, uning asl-mohiyatini tushunishga harakat qildik.

Har bir inson teng huquqqa, so'z erkinligiga ega ekanligini ta'kidlab, kichik sahna ko'rinishi orqali ayrim o'quvchi-yoshlar yomon yo'llarga kirib ketayotganligini ko'rsatdik. Bu bilan

qonunda ularga munosib jazo borligini ham eslatib o'tdik.


Tadbirimiz barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

Ishonamanki, aziz tengdoshlarimiz baxtimiz qomusi bo'lmish

Konstitutsiyamizdagi qonunlarni o'rganib, o'zlashtirib borsalar, hayotda qoqilmaydilar.

Nilufar SHODJONOVA,
Poytaxtimizdagi Olim Xo'jayev
nomli 21- maktabning
10- «A» sinf o'quvchisi.

Baxtimiz qomusi



Salom do'stlar! Ismim Islombek. Men gimnaziya maktabida o'qiyman. Maktabimizda a'lochi, tirishqoq o'quvchilar juda ko'p. Ular turli to'garaklarga a'zo bo'lishlari

Havas

*Qosh-ko'zlari qop-qora,
Ikki yuzi shirmontoy.
Uning shiqildog'i bor,
Shiqillatib o'ynaydi.
Axir katta bola-ku,
Qo'lidan hech qo'ymaydi.*

Yana uyda oyijonimning eng yaqin yordamchilari. Shirinliklar pishirishda ham Ruxsora opamga yetadigani yo'q. Shuncha ishlari bo'lishi bilan birga fanlardan yaxshi baholarga o'qiydilar.

Ana shunaqalar, mening Ruxsora opam. Ulardan ko'p narsani o'rgansa bo'ladi. Men ham opajonimning harakatlarini ko'rib, sport to'garagiga qatnashayapman.

MENING RUXSORA OPAM

bilan birga hamma narsaga vaqt topadilar.

Masalan, mening sevimli opajonim Ruxsora Jalilovani misol qilib olmoqchiman. Ruxsora opam «Yoshlar» telekanalining «Yangi avlod» ko'rsatuvida «Bilag'on maslahati» sahifasini olib boradilar.

Bundan tashqari, Respublika o'quvchilar saroyidagi «To'qish» to'garagiga ham qatnaydilar. Yana, qo'shiq aytishni ham juda yaxshi ko'radilar. Ayni kunlarda «A'lo» guruhi qizlari va Aida Davletova boshchiligida qo'shiq aytishni yaxshilab o'rganib borayaptilar.

Xullas, opajonim sira tinib-tinchimaydilar. Uyda nima ishlar bilan band bo'ladilar demoqchimisiz? Ha-ya, aytmoqchi, Ruxsora opam adabiyotning ashaddiy ishqibozlari. Ular badiiy kitoblar o'qish bilan birga o'zlari she'r yozadilar. Vatan, ona, tabiat haqida ko'p she'rlari bor. Hatto men haqimda hazil she'r ham ijod qilganlar. Mana, o'zingiz bir o'qib ko'ring-a:

*Mening kichik ukam bor,
U juda ham shirintoy.*

Bo'sh vaqtlarimda sport bilan shug'ullanaman. Barcha tengdoshlarimga ham bo'sh vaqtingizni xush o'tkazishga harakat



qiling, deyman.

Aziz tengdoshlar, har bir vaqt g'animat ekanligini tushunib yetaylik. Ulgursak, izlansak, albatta bizga ham havas qilishadi. Bizdek bo'lishga intilishadi.

*Islombek JALILOV,
Poytaxtimizdagi
50 - gimnaziya maktabining
4-sinf o'quvchisi.*

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Yurt tinchligi

Yurt tinchligi — bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Bashariyat o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik-totuvlikka intilib kelgan. Yurt tinchligi — barqaror taraqqiyot garovi.

O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddalari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi. Shuning uchun doimo Yaratgandan tinchlik va omonlik tilaydi.

Lekin, afsuski, hayotda bu ezgu tilaklarning ijobat bo'lishiga doimo qarshilik qiladigan kuchlar ham bor. Ular o'zlarining g'arazli maqsadlari, nafs balosi yo'lida bashariyatni hamisha nizo-adovat, urush va qirg'inlar domiga tortib keladi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, keyingi besh ming yil mobaynida odamzot o'n besh mingdan ziyod kattakichik urushlarni boshdan kechirganini ko'ramiz. Bu — urush va tinchlik, xavfsizlikni ta'minlash masalasi hanuzgacha insoniyat oldidagi eng olamshumul muammo bo'lib qolayotganidan dalolatdir.

Holbuki, bashariyat faqat tinchlik va osoyishtalik barqaror bo'lgan taqdirdagina o'z oliy maqsadlariga erishadi, moddiy va ma'naviy yuksaklikka ko'tariladi. Sohibqiron Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda hukmronlik qilgan qirq yil mobaynida mamlakatda tinchlik-barqarorlik ustuvor bo'lgani sababli ilm-fan, madaniyat yuksak taraqqiy etgan, bunyodkorlik ishlari rivojlangan, ko'hna zaminimiz gullab-yashnagan.

Aksincha, urush va nizolar insonni odamiylik qiyofasidan ayiradi, jamiyatni butkul tanazzul botqog'iga botiradi. Yigirma yildan buyon o'zaro harbiy mojarolar tufayli sivilizatsiyadan batamom uzilib, dunyoning eng qoloq mamlakatlaridan biriga aylanib qolgan Afg'oniston — buning yaqqol dalili.

(Davomi bor).



BOG'ON BOG'IDAGI NIHOLLARNI MEHR BILAN PARVARISHLAYDI VA U QANCHA YAXSHI O'SSA, SHUNCHA SERHOSIL DARAXT BO'LADI. BIZ YOSHLARNI HAM NAVNIHOLGA O'XSHATSA BO'LADI. OILADA YAXSHI TARBIIYA KO'RSAK, VATANIMIZNING KORIGA YAROVCHI, UNING RAVNAQIGA HISSA QO'SHUVCHI KOMIL INSON BO'LIB ULG'AYAMIZ.

ko'rganini qiladi», deb bekorga Afsuski, oramizda oz bolalar uchrab turadi. «Bunga degan savol tug'iladi. Ota-ona qanday bo'lsa, emas...

Ota-onalarimiz biz farzandlarini ne-ne orzu-umidlar bilan voyaga yetkazishadi. Shunday ekan, har birimiz Mustaqil davlatimiz ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan komil inson bo'lib yetishaylik.

BIZNING OILA

«Qush uyasida aytilmagan.

bo'lsa-da, bebosh kim va nima sababchi?».

Menimcha, eng avvalo oilaviy muhit sabab.

farzand ham ulardan andoza oladi. Shukrki, bundaylar ko'p emas...

Zilola IKROMOVA,

Poytaxtimizdagi Adham Yunusov nomli 234 - maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

Buvijonim Musharraf Qosimova bu yil 70 yoshni qarshiladilar. Ular uzoq yillar davomida O'zbekiston tarixi bilan shug'ullanib, O'zbekiston Fanlar akademiyasining tarix fakultetida katta ilmiy xodim bo'lib ishlash bilan birga tarix fanlari nomzodi bo'lganlar. O'zbekiston tarixining 4 tomlik kitobidan 4-tomning 2-bobiga mualliflik qilganlar. Bundan tashqari, Toshkent, Qo'qon, Xorazm, Angren, Samarqand va boshqa qadimiy shaharlar tarixi haqida ham ko'plab maqolalar

MENING BUVIJONIM

yo z g a n l a r .

Buvijonim tarixdek qiyin fanni tanlagan bo'lsalar ham hammasiga bir vaqtda ulgurishga harakat qilganlar. Oldin ma'ruzachi, keyin targ'ibotchi, yana 124 - maktabda ota-onalar qo'mitasiga raislik qilganlar. Hozirgi kunda esa xalq maorifiga qarashli ta'lim-tarbiya markazi qoshidagi o'qituvchilar uyida faxriy ustozdirlar. Eng muhimi, buvijonim mehribon ona va nabiralariga sevimli buvidirlar. Men buvijonim bilan faxrlanaman. Ularning hayot yo'llari men uchun katta maktabni o'taydi.

Nozima QOSIMOVA,
«Orom» ta'lim-tarbiya
markazining
11- «A» sinf o'quvchisi.


TILGA E'TIBOR, ELGA E'TIBOR

Bizning maktabimizda tez- tez tadbirlar, bellashuvlar, tanlovlar bo'lib turadi. Biz o'quvchilar barchasida faol ishtirok etamiz.

Yaqinda ana shunday tadbirlardan biri ona tilimiz bayramiga bag'ishlandi. O'z tilimizni yaxshi bilishimiz, unga doimo hurmatda bo'lishimiz kerakligini yana bir bor eslab o'tdik. Unda ikki sinf 9- «A» hamda 9- «V» sinf o'quvchilari o'zaro bellashdilar. Ikkala sinf o'quvchilari ham bu bellashuvga katta tayyorgarlik ko'rishdi. Ular tilimizning naqadar boyligini aytib o'tishdi. Kichik sahna ko'rinishi orqali tilga bee'tibor bo'layotganlarni tanqid ostiga olishdi.

Bellashuvda 9- «V» sinf o'quvchilarining bu boradagi bilimlari yuqori ekanligi ayon bo'ldi. Maktabimiz direktori Iskandar aka Xudoyberganov o'quvchilarni tabriklar ekan, yanada ko'proq bilim olishga chaqirdi. Bo'lib o'tgan tadbir barchaga ma'qul bo'ldi.

Nilufar BEKTURDIYEVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir
tumanidagi 1- jahon
tillari litseyi o'quvchisi.



Xalqimiz azal-azaldan she'riyatga ixlosmand bo'lgani bois, u hali-hanuz qadrlanib kelmoqda. Har davrning o'z buyuk shoiru yozuvchilari bo'lganidek, hozir ham yurtimizda qalami o'tkir ijodkorlar talaygina. Ulardan

**“MENDAN
NIMA QOLAR...”**

biri Muhammad Yusufdir. Shoir hayot bo'lmasa-da, uning she'rlari yashayapti. Chunki ularda inson ko'ngliga yaqin ajib bir tuyg'u, o'zgacha bir dard bor. Bu shoirning yana bir fazilati shundaki, u xalqini, Vatani juda sevardi. Buni uning she'rlari mavzusi, mazmunidan ham bilib olish mumkin. Muhammad Yusuf she'rlarining tili soddaligi va samimiyligi bilan o'quvchi qalbiga osongina yo'l topa oladi. Shuning uchun ham ular, demakki, shoirning o'zi barhayot. Bir she'rida yozganidek:

Mendan nima qolar,

Ikki misra she'r...

Shoir hamisha biz bilan. Uning yozgan asarlari dardkashimiz, suhbatdoshimizdir.

Go'zalxon QOSIMJONOVA,
Poytaxtimizdagi
116 - maktabning
8- «B» sinf o'quvchisi.

Nurli Nurotam

Qadimda mening Nurotam orqali uzun karvonlar Mag'ribu Mashriq tomon oshiqqan ekan.

Rivoyat qilishlaricha, mashhur sarkarda, olamni zabt

JISMI TOSHGA AYLANGAN QIZLAR

etgan Iskandar hordiq olish uchun bizning Nurotada to'xtaydi. Lashkarboshlaridan biri tasodifan tog' bag'riga osmondan nur yog'ilyotgani va ko'tarilayotganini sezib qoladi. Iskandar ham bundan voqif bo'ladi. Chindan ham mo'jiza - buloq ustiga nur yog'ilyapti, ko'tarilyapti. Sipohlariga shu yerni obod qilishni, atrofiga qal'a qurishni buyuradi. Ana shu Nur qal'asining xarobalari hanuz saqlanib qolgan. Sal pastroqda esa «Qirq qizlar» deb nomlangan maydon bor. Aytishlaricha, qirq nafar go'zal qiz sayr qilib yurishganda yurtni yov bosibdi. Asir tushishdan ko'ra o'limni afzal ko'rgan qizlar Xudodan o'zlarini toshga aylantirib qo'yishini iltijo qilishibdi. Xalq sayillari, marosimlar aynan shu yerda bo'lishining ham ramziy ma'nosi bor ekan. Jismi toshga aylangan qizlarning ruhi shod bo'larmish.

Lobar TURDIYEVA,

Navoiy viloyati, Navoiy tumani, Hazora jamoa xo'jaligidagi Xursanoy Egamova nomli o'rta maktabning 10-sinf o'quvchisi.

Yaqinda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalok» harakati ish boshlaganidan xabaringiz bor. Harakatga, «Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun» degan shior tanlandi. Harakat a'zolarining jiddiy tayyorgarliklari va o'tkazilayotgan yig'ilishlar tufayli hozirda bu harakat yoshlarimizning chinakam tayanchi va ishonchiga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Jumladan,

«KAMOLOT»CHILAR HARAKATI

kuni kecha Toshkent shahridagi tumanlar «Kamolot» ijtimoiy harakati a'zolari ishtirokida navbatdagi majlis bo'lib o'tdi. Unda Chilonzor, Yunusobod, Shayxontohur, Akmal Ikromov, Hamza, Mirobod, Sirg'ali, Mirzo Ulug'bek va Sobir Rahimov tumanlari «Kamolot» sardorlari ishtirok etdilar. Majlisdan asosiy maqsad, tuman sardorlar kengashi a'zolarini bir-birlari bilan tanishtirish va faoliyat almashishlariga sharoit yaratib berish edi.

Men ham bu seminarda qatnashib, Ulug'bek, Nodira, Jasur, Gulmira, Lola, Dilnoza, Najmiddin va Shoasqar ismi tengdoshlarim bilan do'stlashib oldim.

Muhayyo OCHILOVA,

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Chilonzor tuman bo'lim kengashi Ma'naviy-ma'rifiy soha bo'yicha sardor yordamchisi.

USTOZ XOTIRASI SHOGIRDLAR QALBIDA

G'ijduvon qadimdan polvonlar yurti sanaladi. Kuragi yer iskamagan polvonlardan biri To'la Rajabov ham shu go'shaning faxri, iftixori sanaladi.

Yaqinda uning xotirasiga bag'ishlab G'ijduvon ochiq birinchiligida Milliy kurash bo'yicha musobaqa bo'lib o'tdi. Polvonlar bahsida qo'shni Navoiy viloyatining G'afur G'ulom nomli maktab o'qituvchisi, sport ustasi Suvon Turdiyevning shogirdlari hamda O'zbekiston chempioni

Akmal Zoyirovning shogirdi bo'lmish milliy kurash bo'yicha viloyat chempioni, sport ustasi Xolpo'lat Rahmatovning shogirdlari ozaro bellashdilar.

Bellashuv avvalida ustoz To'la Rajabovni xotirlab Alisher Navoiy

nomidagi maktab direktori Mirzo Vafoyev ma'ruza qildi. U maktab o'quvchilarining bir necha bor tuman,



viloyat birinchiligida qatnashib, voleybol, futbol musobaqasi bo'yicha birinchi o'rinni olganliklarini faxr bilan ta'kidlab o'tdi.

Kurashda 28 kilogrammdan 81 kilogrammgacha vaznda bo'lgan polvonlar ishtirok etdilar. Murosasiz

o'tgan bellashuvlarda yosh, umidli polvonlardan Ma'ruf Rahmatov, Suhrob Tohirov, Jaloliddin Rahmatov, Abbas To'rayev, Laziz Qahhorov, Ilyos Shamsiddinov, O'tkir Nasimov, Farrux Jo'rayev, Jahongir Rahmatov, Sami S h a m s i y e v l a r, mehmonlardan Azamat Xoliqov g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Ayniqsa, Jahongir Rahmatovning kurashi tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi. Ustozning o'g'li To'ra Rajabov g'oliblarga o'z hisobidan sovg'alar ulashib, barcha kurashchilar va tomoshabinlarni to'kin dasturxonga taklif qildi.

Said NAZAROV,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 9 - maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

YURARMAN MAQTAB, MEN SENI, MAKTAB!

Toshkent viloyatining Quyichirchiq tumanida joylashgan 42 - maktabda 193 - nafar o'g'il-qiz tahsil oladi. Ularga Amirqul Qo'shboyev, Fotima Abdullayeva, Chachi Zera Mustafayevna, Ibraim Dudakov singari tajribali o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berishadi. Shu bois ham o'quvchilari bilimdon, zukko. Akrom Mahamatov, Mahmud Ahmadaliyev, Bobur Boybo'tayev, Farog'at Subonova, Nargiza Adilova kabi o'g'il-qizlar maktabning faxri bo'lsa, «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq ko'rik tanlovining viloyat bosqichida g'olib chiqqan 7 - sinf o'quvchisi Elmurod Xudoyberdiyev bilim maskanining iftixori sanaladi.

Maktabda ustozlar va o'quvchilar Ikkinchi toifali murabbiy 18 yildan orasida do'stona aloqa o'rnatilgan. beri shu maktabda ishlaydi.



O'qituvchilar har bir shogirdning ko'ngliga yo'l topa bilishga intiladilar. Ayniqsa, 2 - sinf rahbari Norbuv Shayzoqovani o'quvchilari juda yaxshi ko'rishadi.

Shogirdlari orasida uningdek ustoz bo'lishni orzulaganlar qancha.

Bilim maskanida amalga oshirilayotgan barcha ibratli ishlarga maktab rahbari I.I.Dudakov va ilmiy bo'lim mudiri M.Mo'minova boshqosh bo'lishyapti. Ular mehnatlari besamar ketmasligiga, o'quvchilari ustozlari ishonchini oqlashlariga ishonadilar.

*Xolmurod
TOSHMUHAMMEDOV.
Surat muallifniki.*

Yuz bora eshitgandan, bir bor ko'rgan afzal, degan hikmatning to'g'riligiga yaqinda maktabimizda bo'lib o'tgan tadbirdan so'ng yana bir bor amin bo'ldim.

Maktab zalini to'ldirib o'tirgan o'quvchilarimiz Respublika «Turon» yoshlar teatri studiyasining «O'zligingni unutma» nomli teatrlashtirilgan chiqishlarini zo'r qiziqish bilan tomosha qilishdi.

Ayniqsa,

sahnalashtiruvchi rejissyor Ravshan aka Yoriyevning o'quvchilar bilan olib borgan muloqotlari jonli, qiziqarli, savol-javoblarga boy bo'ldi. Sahnada ko'rsatilgan voqealar tafsiloti, Vatan xoinining fojiali taqdiri har bir bola uchun hayot maktabi vazifasini o'tashi tayin. Zalda o'tirgan kichik yoshdagi bolajonlar ham zerikib qolishmadi. Ular uchun namoyish etilgan qo'g'irchoq

Maktabdagi tomosha

teatrini ko'rib bo'lib, sahnalashtiruvchi rassom Mansur Quryazovni savollarga «ko'mib tashlashdi».

B i z ustozlar o'quvchilarimizga giyohvandlik va uning og'ir oqibatlari haqida juda ko'p gapiramiz, bu yo'lga kirib qolmanglar, deya nasihat qilamiz. Ushbu sahna ko'rinishlari esa ularning irodasini yanada mustahkamlaydi, deya umid qilamiz va teatr jamoasiga o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz.

*Muhabbat JAMOLIDDINOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi
8 - maktab ma'naviyat va ma'rifat ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari.*



“ASR YOSHLARI”DA UCHRASHAMIZ

Respublika o‘quvchilar saroyida tashkil etilgan «Asr yoshlari» klubi o‘smir yigit-qizlarning ixtiyoriy ravishda uyushgan, mustaqil, demokratik qoidalari asosida faoliyat ko‘rsatadigan aziz maskandir.

Klubning asosiy maqsadlaridan biri yosh avlodni Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashdir. Shu bilan birga olam go‘zalliklarini to‘g‘ri anglay olishlarida ko‘maklashishdir.

«Asr yoshlari» o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini, Respublika o‘quvchilar saroyi Nizomini, Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiyani puxta o‘rganib boradilar.

Klubimiz a‘zolari Respublika va xalqaro miqyosdagi jamoat tashkilotlari, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan aloqalar o‘rnatish va ularning imkoniyatlaridan keng

Har tomonlama yetuk, barkamol, yuksak madaniyat va ma‘naviyat egasi bo‘lib yetishish insonning avvalo o‘zi, ota-onasi, qolaversa, Vatani oldidagi burchidir. Albatta bu katta mehnatni talab qiladi.

Biroq, hamma ham olg‘a intilavermaydi. Qilayotgan ishining nechog‘li yomon

foydalanish huquqiga ham egadirlar.


Biz o‘smir-yoshlarni Respublikamizning munosib fuqarosi bo‘lib yetishishlariga, jahon andozalari me‘yorida ilm olishlariga, avloddan-avlodga o‘tib, rivojlanib kelayotgan milliy an‘analariga sadoqat ruhida tarbiyalashga ko‘maklashamiz. Har bir ish faoliyatimizda «Asr yoshlari» a‘zolari ongiga atrofdagilarga

hurmatda bo‘lish, o‘z fikrini erkin ifodalash kabi fazilatlarni singdirib boramiz.

Ularni yomon ko‘chalarga kirib qolishlaridan asrashga harakat qilamiz. Turli oqim, g‘oya va qarashlarga nisbatan hamisha sergak bo‘lishga chaqiramiz.

Ayni kunlarda klubimizda ish qizg‘in. Unga a‘zo bo‘luvchilarning soni kun sayin ko‘payib borayapti. Biz klub a‘zolari bilan birgalikda joylarda, jumladan, Respublikamizning barcha hududlarida, mehribonlik uylarida, sog‘lomlashtirish oromgohlarida, maktab va o‘quvchilar uylarida tadbirlar uyushtirishni rejalashtirayapmiz. Niyatimiz, «Asr yoshlari» safida bilimdon, zukko o‘g‘il-qizlar ko‘paysa.

Baxtiyor G‘ULOMOV,
Respublika «Asr yoshlari»
klubining prezidenti.



Siz buni qanday izohlaysiz?

giyohvandlik ko‘chasiga kirib borayotgani juda achinarlidir. Bu illatga qarshi qanchalik kurashmaylik, y o s h l a r

klubimizda «Umid va maqsadsiz hayot - hayot emas» shiori ostida katta tadbir o‘tkazildi. Unda so‘zga chiqqan tibbiyot fanlari doktori Temur Usmonov giyohvandlikning z a r a r l i

MAQSADSIZ HAYOT - HAYOT EMAS

ekanligini bilsa-da, yomonlik sari boraveradi. Bunday insonlarni biz irodasi bo‘sh, o‘zini qo‘lga ololmaydigan, so‘zida turmaydiganlar toifasiga qo‘shamiz. Bu kabi insonlarni hurmat ham qilmaymiz, ularning suhbatidan qochishga harakat qilamiz.

Ayrim tengdoshlarimizning

orasida giyohvandlik ko‘chasiga kirib qolayotganlar oz bo‘lsa-da, uchrab turibdi.

Shuning uchun ham yoshlar orasida tez-tez bo‘lib, giyohvandlikning yomon oqibatlari haqida tadbirlar, suhbatlar uyushtirib, bu boradagi savodimizni oshirib borishimiz shart.

Yaqinda bizning «Asr yoshlari»

oqibatlariga to‘xtaldilar. Bu ko‘chaga kirmaslik uchun esa irodali bo‘lishimiz, bo‘sh vaqtimizni kerakli ishlarga sarflashimiz zarurligini yana bir bor uqtirdilar.

Qiziqarli savol-javoblarga boy bo‘lgan tadbirimiz qo‘shiq va raqslarga ulanib ketdi.

Munisaxon MAJIDOVA,
«Asr yoshlari» klubi a‘zosi.

DAHONING TUG'ILISHI

Hurmitonning kichik bir qishlog'i Afshona. Ajoyib ko'rkam diyor bu. O'shanda hijriy 370 uil safar oyining ortalari bo'lib, avji pishiqchilik. Bu zaminning shirin-shakar uzumlari, tilni yorar qovunlari-yu qirmizi olmalari mashhuri jahon. Jannatning bir parchasi shu yer ekanligiga sizda shubha qolmaydi.

Sabo bilan uyg'ongan qushlar tong yorishib, yangi kun boshlanayotganidan odamlarni xabardor qilayotganday bir-birin

kuzatib, boz bolasiga qaraydi. Ha, bola tug'ilibdiki, xonadondan odam uzilmaydi. Axir, oila xo'jasi, Abdulloh Hurmitonda eng obro'e'tiborli odam, kasbikori asli omilkor, Amirning shu atrof qishloqlardagi ishongan vakili, soliq yig'uvchisi. O'zi ham dilbar, odamshavanda, ko'p o'qigan, ma'rifatli, musiqa, she'riyatga

Aziz bolajonlar, kutubxonangizdagi lotin alifbosidagi kitoblaringiz soni yana bittaga ko'paygani muborak bo'lsin. «Ibn Sino» nashriyoti yaqinda sevimli adibimiz Maqsud Qoriyevning «Ibn Sinoning bolaligi» qissasini chop etdi. Unda olamga mashhur hakim va alloma Ibn Sinoning o'qishga, bilim olishga ruju qo'ygan bolalik yillari hikoya qilinadi. Olamga ma'lumu mashhur Vatandoshimiz haqidagi bu kitobdan ma'lum boblarni e'lon qilishga jazm etdik. O'qing, o'z tarixingiz bilan faxrlaning.

emish. Shu bois ko'p oilalarda bolalar ancha vaqtgacha ko'krakdan ajratilmaydi. Ba'zan ajratilgandan

Yangi kitob

IBN SINONING BOLALIGI

yo'qlab sayrashadi. Tabiatda ajoyib bir jonlanish.

O'y noqi shaboda yelib gullar, o'to'lanlar uforini olib kelib dimoqqa urar, ko'ngillarga xushnudlik baxshida aylar.

Shu qutlug' xonadonning xo'jasi Abdulloh bomdod namozini ado etib bo'lgach, hamdusanolar aytib nimalarnidir deb uzoq pichirlab o'tirdi-da, keyin yaratganga ming bor shukronalar aylab yuziga fotiha tortdi. Endi ko'ngli taskin topib, xayollar og'ushiga cho'mgan.

Nariroqdagi shoxsupada esa shu xonadonning bekasi Sitorabonu tinolar, yonida beshik, beshik atlas shohi ko'rpachalar bilan orasta qilingan. Beshikda oilaning erkatoysi, orziqib kutgan jigarbandi pishillab uxlar. Subh yorishib, qushlar nag'masi pasaygandek bo'ldi. Shunda chaqaloq yig'isi eshitildi. Ona hamon shirin uyquda. Qani endi biroz yana uxlayqolsa. Necha kundir tinib-tinchimas, mehmon kutib charchagan. Morak bo'lsinga kelgan qarindosh-urug'lari-yu, ko'pdan-ko'p hurmat-e'tiborli mehmonlarni

ixlosmand fozil inson.

Bola go'yo onasi qattiq uxlaganini sezgandek jonjahdi bilan yig'ladi.

-Hoy onasi, bolangga qarasang-chi, qorni ochganga o'xshaydur, tezroq emizaqol!

Sachrab uyg'ongan ona bag'ri ila beshikka talpinadi. Harxasha qilayotgan chaqaloq shu oilaning ko'z ochib ko'rgan birinchi farzandi, jigargo'shasi, erkatoysi - Xusayn. Otasi unga hali tug'ilmasdan

udumga ko'ra Ali deb bobosining ismini qo'ygan. Mana endi erkatoys uch oylik bo'ldi.

Chaqaloq yig'idan to'xtab, «Qo'rqmang onajon. Sizni sog'inib qoldim» degandek, tamshanib jilmaydi. Sitorabonu umidli dunyoga endigina kirib kelayotgan farzandiga mehrl ko'zlarini tikib pichirladi:


-Qorning ochib qoldimi, voy mening erkatoyim, asalginam, novvotginam, toychoqqinam. Bolakay erkalashlaridan taltayganday onasining ko'kragini cho'lpillatib so'rardi.

Bobokalonlarimiz demishlarki, ona suti farzandga mehr sharbati, uning o'rnini hech narsa bosolmaydi. Chaqaloqlikdan ona sutini to'yib emgan bola, sog'lom, baquvvat bo'lib o'sar

keyin ham qo'msab qolib ko'chada o'ynab-o'ynab kelib erkalanib volidasining ko'kragiga yopishadi. Hayotda bunaqalar ko'p uchraydi.

Xonadon sohibi Abdulloh bola emizib o'tirgan ayoli tomon nigoh tashladi. Ko'ziga Sitorabonu beshik bilan birga go'yo butun olamni tebratayotganday tuyuldi. «Bunday go'zal, sadoqatli ayollar dunyoga kam keladi, bunaqalarga joningni fido etsang arziydi» ko'nglidan o'tkazdi u. Ha Jayhunung narigi sohilidagi Balx shahrida dunyoga kelib, ko'p ilmlardan xabardor, Misrliklar da'vatini qabul qilib o'zini Ismoyillardan deb bilgan Abdulloh somoniylar amiri Nuh Ibn Mansur zamonida Buxoroyi sharifga kelib qoladi va qalbidagi yorini qishloqdan topib oladi va shu sohibjamol ishq zanjiriga bog'lanib Afshonada qolib, mana endi bola-chaqali bo'ldi. Arziydi, qancha qilsa ham arziydi. Sevgining oldida, boylik ham, martaba ham hech gap emas. Aslida Hurmitonga kelishi, Afshonada shu hurliqo bilan uchrashishi va ko'zlar bir-biridan suv ichib, yuraklar ko'rinmas iplar bilan bog'lanishi tasodif emas, taqdir hukmi edi. Alloh elchilari Abdullohning peshonasiga taqdiri azalini bitayotganda «Sitora» degan ism ham yozilgandi. Lekin unda bu qiz hali dunyoga kelmagandi, qayerda, qachon tug'ilishi Abdulloh bilan qay alpozda uchrashishlari va umr arqoqlari birga eshilishi birgina xudoyi akramga ayon edi.

(Davomi bor).



Sog' yurak - tog' yurak

G'JDUVONDA BIR MASKAN BOR

U doimo bolalar bilan, aniqrog'i sport ishqibozlari bilan gavjum bo'ladi. Qanday maskan ekanligini faxmlagandirsiz-a? Ha, barakalla, tuman xalq ta'limi bo'limiga qarashli Bolalar va o'smirlar sport maktabidir. 20 yildan buyon Muhammad Nasriddinov rahbarlik qilayotgan ushbu maktabning nomi nafaqat tumanda, balki viloyatda ham yaxshi tanish. Futbol, basketbol, boks,

4 nafari O'zbekiston sport ustasi unvoniga ega. 60 dan ziyod sport ustasi nomzodi, 300 dan ziyod 1 - razryadli sportchilar va minglab ommaviy razryadli sportchilar tayyorlandi. Ayniqsa, dzyudochi qizlarning ko'rsatgichlari G'ijduvon sporti tarixiga katta harflar bilan yozib qo'yilyapti. Ulardan 6 nafari Respublika terma jamoasida asosiy o'yinchi bo'lib, terma jamoa sha'nini bir necha xalqaro

qilinganligini murabbiylari iftixor bilan gapirishadi.

- Jamshid Teshayev, Jamshid O'roqov, Shuhrat Yusupov, Shuhrat Jo'rayev, Shavkat Zoirov, Farhod Fazliddinov singari polvon bolalarimiz Respublika chempionlari bo'lishgan,-deydi maktab direktori Muhammad aka Nasriddinov faxr bilan.- Viloyat, respublika miqyosidagi

dzyudo kurashi, milliy o'zbek kurashi bo'limlarida 518 nafar g'ijduvonlik yosh sportchilar o'z mahoratlarini oshirib kelyaptilar. Ularga Ilhom Adizov, Komil Ochilov, Samandar Hoshimov singari 18 nafar mo'hir



murabbiylar ustozlik qilishadi. Maktab tarbiyachilarining viloyat miqyosidagi sport bellashuvlarida faqatgina faxrli 1-, 2-, 3 - o'rinlarni olib kelishayotgani murabbiylar mahorati, shogirdlarning tirishqoqu izlanuvchanliklari dalolatidir.

Sport maktabidan yetishib chiqqan yuqori razryadli sportchilarning ko'pchiligi endilikda o'zlari ham murabbiylik qilishyapti. Ulardan

musobaqalarda munosib himoya qilib kelishyapti. Dilafruz Otayeva 1995 yil Moskvada bo'lib o'tgan musobaqada, Sveta Javharova esa «A» toifali musobaqada o'z vaznlarida 5-o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

Shogirdlaridan 9 nafari Toshkentdagi jismoniy tarbiya oliygohida tahsil olishayotganini, 4 nafari Buxoro Davlat Universitetiga va bir nafari Navoiy pedagogika oliygohiga imtiyozli ravishda o'qishga qabul

sport musobaqalarida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritayotgan shogirdlarimizni nomma-nom sanayversak, ancha vaqt ketadi. Maqsadimiz - barkamol avlodni tarbiyalash. Ushbu yutuqlarimizni yanada

mustahkamlab, yosh, umidli sportchilarni xalqaro maydonlarga chiqarishimiz lozim. Bu esa o'z-o'zidan moddiy harajatlarga borib taqaladi...

Farzandlarimizni bizdan-da dono, aqlli va albatta, baxtli ko'rishni orzulayotgan yurtboshimiz ularning kamoli uchun hech narsani ayamaydilar. Barchamiz ulardan o'rnak olib yashasak, qaniydi.

Feruza JALILOVA.

ABADYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

XVI asr sarhadidagi Italiya, Leonardo da Vinchining yetuklik, Mikelanjeloning

tomonlama rivojlangan, har tomonlama bilim olgan odamga aylandi. Nikolay Kopernik deganda ko'pchilik astronom olimni tushunadi.

ham olib kelgandi. Kopernik o'zining dahriylik urug'larini asrab-avaylab, oshiqmay ekib undirdi, shoshilmay parvarishlab o'stirdi,

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

Holbuki, yaqinda topilgan hujjatlar u ajoyib iqtisodchi olim bo'lganidan dalolat beradi. Kopernikning XVI asr birinchi

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

yoshlik paytidagi sehrli ijodiyotiga mahliyo bo'lgan Italiya. Aflotunni kashf etgan, Arastuni yangidan


choragiga mansub uchta qo'lyozma asarida uning Polshadagi

hosilini ham bamaylixotirlik bilan yig'ib oldi.

Yolg'izlikni yoqtiradigan

QUYOSHNI TO'XTATGAN ODAM

o'rganayotgan, o'tmish asrlarning buyuk kashfiyotlarini izlashga ishtiyoqmand, Uyg'onish davrining afsonaviy parvozigaga intilgan Italiya. Kopernik shu diyorda o'n yil yashadi. Bolonyada diniy huquq ilmini o'rganishi kerak bo'lgan Nikolay undan bo'lak hamma narsani - tasviriy san'at, matematika, astronomiya, falsafa, yunon tilini o'rgandi. U Bolonyada diplom ololmadi, lekin bundan zarracha o'kingani yo'q.



Diplom, unvon, mansab, mukofot degan narsalarga bir umr loqayd qarab o'tdi, Bolonyadan Rimga borganida ham o'rganishi kerak bo'lgan narsadan mutlaqo boshqa narsalarni o'rganaverdi. Pirovard oqibatda kapitul uni o'z joyiga chaqirdi. Ammo Nikolay Italiyadan ketishni istamasdi sira. U o'qish muddati uzaytirilishini ketma-ket so'rayverdi, iltimoslari qondirilganda esa... Paduya va Ferrarida huquqshunoslik hamda tibbiyot bilan shug'ullana boshladi.

Italiyada o'tgan o'n yillik farovon hayotidan jindek erkalanib ketgan Kopernik jiddiy tadqiqotchiga, har

pul munosabatlarini barqarorlashtirishning ehtimoliy yo'llari haqidagi qarashlari bayon etiladi. Mutaxassislarning fikriga qaraganda, Kopernik o'z davridagi iqtisodiy tafakkurning oldingi saflarida borgan.

Ha, u har tomonlama rivojlangan va har tomonlama bilim olgan inson edi, biroq shubha-gumonlarning achchiq zahri butun borlig'ini qoplagan, yuragini kemirgan edi. U Italiyadan qadrdon Varmiyaga - Boltiq dengizining sovuq sohillariga bilimlari bilan birga azaliy haqiqatlarga doimo tanqidiy qarashga, ularni qayta yangilashga nisbatan betizgin ehtiyojni

bu o'ychan odam Fremberk ibodatxonasini qurshab turgan qal'a devorining mo'jazgina minorasida 30 yil yashadi. Ba'zan tunlari yulduzlarni kuzatganida derazada sharpasi ko'rinib qolardi. Leonardo da Vinchining «Nazariya - sarkardayu amaliyot askardir» deb tajriba o'tkazishga undagan chaqiriqlarini Kopernik qabul qilmadi, binobarin, uni tom ma'noda tadqiqotchi deyish ham qiyin. Kopernik buyuk astronom bo'la turib, osmonda hech nima kashf etgani yo'q. U falakdan o'z ta'limoti haqligini tasdiqlovchi dalil-isbotlarnigina izlardi, xolos.

(Davomi bor).

2002 yil - Qariyalarni qadrlash yili

- «Yoshlikda bergin mehnatni, qarilikda rohatni», «Sarfa qilsang, Sayramga yetasan, sarfa qilmasang, sayrab qolasan», ya'ni tejamkor bo'lmasang, «Yog'och kessang uzun kes, temir kessang kalta kes», ya'ni yog'och o'lchovidan uzunroq bo'lsa, uni arralab maromiga keltirish mumkin, temir kaltaroq bo'lib qolgan bo'lsa, uni olovda

qizdirib uzaytirsang bo'ladi, kabi maqollar nechog'lik

to'g'ri ekanligiga mana 65 yildan beri amin bo'lmoqdaman, - dedilar andijonlik **Asadullo hoji ota Rahmatullayev**, - Hunar qiyin, biroq mevasi shirin. Men esimni taniganimdan beri ustachilik qilaman. Maktabda 7-sinfda tahsil olib yurgan kezlarimda Bilol aka degan ustaga shogird tushganman. G'isht quyardim, tandir, sandal (tancha) qurardim, hatto uyimiz orqasidagi tomorqaning bir chetiga uy qurganman. 18-19 yoshga to'lganimda usta Bilol

menga fotiha berganlar. Bu davrga kelib men mustaqil, imorat ko'tara olardim. Shu bilangina cheklanib qolgim kelmay, duradgorlikning ham miridan sirigacha o'rganganman. Yuzlab shogirdlar chiqarganman. Biz yasagan stol-stullar pishiqligi va chiroyliligi bilan xaridorgir bo'lib ketgan. Ish sifatiga mening talabim kuchli. Biz asosan yong'oq va chinor daraxtlaridan foydalanamiz. Sifatli ishlarimiz dovrug'ini eshitgan xaridorlar uyimizgacha izlab kelishadi. Eh-he, gapiraman desam, gap ko'p. Keling, yaxshisi hunar haqida, duoning hislati to'g'risida bir rivoyat aytib beray:

Bir mo'ysafid bo'lgan ekan. Uning ikki nafar o'g'li bor ekan. Yoshini yashab, oshini oshagan mo'ysafid bu dunyodan ketar chog'ida o'g'illarini chaqiribdi.

- Bolalarim, mening kunim bitganga o'xshaydi. Sizlarga qoldiradigan ikki

narsam bor: biri duo, biri dunyo. Qanday kelishasizlar? - deganda, katta o'g'li dunyoni, kenjasi duoni tanlabdi.

Otani yerga qo'ygandan keyin katta o'g'il bor davlatini olib, boshqa uyga ko'chib ketibdi. Kichigi esa bo'm-bo'sh uyda qolibdi. Yillar o'tibdi. Kattasining davlati borgan sari kamaya

HOJI OTA HIKMATI



uchun ham o'g'il tillani qidirmabdi. Kunlar o'tib, yana tush ko'ribdi. Endi otasi falon joyda 10 tilla tanga ko'milganini, u ham vafo qilmasligini aytibdi. Yigit parvo qilmabdi. Biroz vaqt o'tgach, yana tush ko'ribdi. Tushida otasi falon joyda 1 tilla tanga ko'milganini, u o'g'liga vafo qilishini aytibdi. Uyg'ongach, yigit o'sha tilla tangani qidirib topibdi. Tang holatda, och-nahor yashayotgan oilasiga rahmi kelib, o'sha tangaga bozordan bitta baliq xarid qilibdi. Pishirib tanavvul qilaylik deb, baliqni yorsa, ichidan qimmatbaho ikkita gavhar shamchiroq chiqibdi. Uning bittasini sotib, do'kondan ul-bul xarid qilmoqchi bo'libdi. Do'kondor gavhar shamchiroqning naqadar qimmatligini, do'kondagi barcha narsalar narxi ham shamchiroqning yarim puliga yetmasligini aytibdi. «Mening qo'shnim podshohning o'ng qo'l vaziri. Unga aytib ko'ray. Bu gavhar

shamchiroqni sotib olishga faqatgina podshohning qurbi yetadi», debdi. Bor gapdan xabar topgan vazir podshoh uchun gavhar shamchiroqni 1000 tilla tangaga sotib olibdi. Xazinasiga qimmatbaho tosh zeb berib turganidan xursand bo'lgan podshoh yigitni huzuriga chorlabdi.

U «...» shamchiroqlar juft-juft bo'ladi. M a b o d o ikkinchisi ham

senda emasmi?» debdi. Yigit ikkinchisini ham 1000 tilla tanga evaziga keltirib beribdi. Uning haqgo'yli podshohga ma'qul kelib, o'ziga bosh vazir qilib olibdi.

Alqissa shuki, «Oltin olma duo ol, duo oltin emasmi?»...

- Mana, mustaqillik men kabi hunarmandlarga keng yo'l ochib berdi. Milliy hunarmandchiligimiz mahsullari xorij davlatlarini ham lol qoldirmoqda. Xususiy tadbirkorlarga esa juda ko'p imkoniyatlar yaratilgan. Qaniydi 10 yoshga kichikroq bo'lsam, juda ko'p ishlarni amalga oshirgan bo'lardim. Mehnatdan nafaqat men, boshqalarni ham manfaatdor qilgan, ishsizlarni ish bilan ta'minlagan bo'lardim. Hozir ham shu harakatlar bilan yuribmiz. Nasib qilsa, mahsulotlarimiz dovrug'i nafaqat Andijonda, balki butun O'zbekistonga va xorijga yetadi...

Oppoq soqollari ko'ksilariga tushgan, oq chakmonlari o'zlariga yarashgan, serg'ayrat, shijoatli, mehnatkash Asadullo hoji otaning qadoq qo'llari, nurli ko'zlari kelajak avlod uchun yana minglab jihozlar yaratishga shay. Pokdomon qalb egasi o'z rohatini emas, o'zgani o'ylayotgani dilimni ruhlantirib yubordi. Axir nuroniy otaxonlarimiz duosi, ko'magi ila tetapoya bo'layotgan yoshlar qaddini tik tutadi-da. Ulardan o'rnak olib, hayotiga mustahkam poydevor quradi.

Muharrama PIRMATOVA.

Bu voqea yozning issiq kunlaridan birida sodir bo'lgan edi. Dadam menga bir ot olib bergandilar. Ukam ikkalamiz otni har kuni soyga olib b o r i b

sirpanib-sirpanib ketar, lekin yiqilmaslikka harakat qilardi. Shu payt qaltisroq qadam bosib yubordimi, otim

Men suvning shovqini aralash otimning ikki marta qattiq kishnaganini eshitdim. Qarasam, u qirg'oqqa chiqib suv bo'ylab yugurib kelayapti...

MENING VAFODOR TULPORIM

cho'miltirar, uni xuddi yosh boladek parvarishlar edik.

Bir kuni men otimni minib qo'shni qishloqqa pichan o'rimiga bordim. Kech tushib qolgandi. Oradagi masofa uzoq, buning ustiga katta soyni kechib o'tishim kerak edi. Ertalab qishloqqa ketayotganimda soyda suv kamroq edi. Qaytayotsam, suv anchagina ko'payib qolibdi... Tavakkal qilib, otning boshini suv tomon burdim. Otim avvaliga cho'chib, orqaga tisarildi. Men uni niqtayverganimdan so'ng, asta-sekin suvga tushdi. Ammo suvdagi toshlarning sirpanchiligidan u



bilan men ham suvga «shalop» etib tushib ketdim. O'zimni o'nglashga harchand harakat qilsam ham, suvning to'lqinlari meni oqizib ketaverardi.

Ko'zimni ochsam, tepamda oyim o'tiribdilar. Boshim qattiq og'rir, ko'z oldimda «to'lqinchalar» suzib yurardi. Shu vaqt xonaga dadam kirib keldilar va: - O'g'lim, agar oting bo'lmaganida seni topa olmasdik, sen hushingdan ketgan ekansan, sayozroq joyga borib, seni olib chiqibdi-ya, jonivor... Aql bovar qilmaydi,-dedilar. Shundan keyin meni otimga mehrim yanada oshib ketdi.

*Akmal TOLIPOV,
Parkent tumani,
Zarkent qishlog'i.*

Sodiq do'st

Yo'l-yo'lakay panjam bilan nortuyaning yelkasiga sekin qoqaman-da, uni s u h b a t g a tortaman.

Sen emasmish tashnalikda sabr-toqat podshohi, Buyuk ipak yo'lida esa mehnating karvon bo'lgan nortuya!

Darvoqe, sen haqingda shunday maqol ham bor: «Tuyaga yantoq kerak bo'lsa bo'ynini cho'zar».

Nega shunday deyishadi-ya?



NORTUYA

Dunyoning ishlari qiziq-da, Nortuya! Taqdir taqozosi ila sen bilan gurunglashib kelmoqdamiz. Bilasanmi, xuddi soat millaridek seni lo'k-lo'ketib yurishlaring yoqadi. Negadir shu dam juda-juda senga o'xshagim keldi, og'irni yengil, uzoqni yaqin qilishingni o'ylab! Nortuya!..

I-ye, suhbat bilan bo'lib ovulga ham yetib kelibmiz, endi o'tir, cho'k, cho'k, Nortuya! Yana gapimga quloq solding, aytganimni qilding... Men esa baribir bu borada senga o'hshay olmayman...

*Erkin HOJIYEV,
Kattaqo'rg'on.*

(Davomi).

Yer tebranishidan so'ng siz ko'plab vayronalar, yong'in kelib chiqqan binolar, uning ichida qolib ketgan va jarohatlangan odamlarni ko'rasiz. Bunday vaziyatda o'zingizni qo'lga olib, xotirjamlikni saqlagan holda darhol shikastlanganlarga yordam ko'rsatib, keyin yong'in chiqayotgan joylarni o'chirishingiz lozim. Shundan keyingina boshqa ishlarga kirishiladi:

qo'l bilan ushlamang, oyoq bilan bosmang, tok urishi mumkin.

7. Suv quvurlari shikastlanib, jo'mrakdan suv oqib yotgan bo'lsa, uning manbaini topib, berkitib qo'yish maqsadga muvofiqdir.

8. Uzilib yotgan aloqa tarmoqlarining simlarini yig'ishtirib, chambarak qilib o'rab, ko'zga ko'rinadigan biror joyga ilib qo'yish kerak.

9. Odamlarning xavfsizligini ta'minlash

Ogoh bo'ling, bolalar!

mumkin.

12. Hojatxonaga kirishdan oldin kanalizatsiyaga shikast yetmaganligiga ishonch hosil qiling.

13. Vayronalar ichida yurganingizda oyog'ingizga qattiq oyoq kiyimi kiyib oling. Chunki yerda siniq oynalar, shishalar,

ZILZILADAN SO'NG NIMA QILMOQ KERAK?

1. Diqqat bilan atrof-muhitni kuzatib, xotirjamlik bilan ishlarning rejasini tuzasiz.

2. Ko'p qavatli uylarda bo'lsangiz, zinalardan tushishda ehtiyot bo'ling. Zinalarni birma-bir tekshirib, asta-sekin tashqariga chiqing. Uyda yong'in paydo bo'lsa, qanday qilib bo'lsa ham u yerdan chiqib ketish kerak.

3. Jarohat olganlarga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish, kun sovuq bo'lsa, ularning ustlarini qalin o'rab, tibbiyot xodimlarini chaqirish kerak.

4. Yonayotgan uylarni yong'in o'chiruvchilarni chaqirib o'chirtirish, u yer bu yerda tutab yotgan joylarning ustiga suv sepish lozim.

5. Gaz quvurlarini ko'zdan kechirib, gaz chiqayotganligi sezilsa, ventillarni yopish kerak. Bu vaqtda qo'lingizda fonus bo'lishi shart. Gugurt yoki shamdan foydalanish qat'iy ma'n qilinadi.

6. Elektr tarmoqlari uzilib yotgan bo'lsa, elektr manbaini o'chirish kerak. Osilib turgan elektr simlarini

yoki ularga yordam berish hollaridan tashqari avtomobillardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

10. Telefondan faqat

har xil armaturalar yotgan bo'lishi mumkin.

14. Yorilib shikast yetgan inshootlar yonidan o'tayotganda nihoyatda ehtiyot bo'ling. Chunki ular to'satdan qulashi mumkin. Yana elektr simlari

uzilishi, gaz quvurlarini yorilib buzilishi, deraza oynalarining sinib ketishi ehtimoldan holi emas.

15. Yerto'la eshiklarini asta ochish lozim. Chunki og'ir narsalar ag'darilib ketishi mumkin.

16. Diqqat bilan radiodagi zilzila to'g'risidagi xabarlarini eshitib boring.

17. Militsiya xodimlariga, harbiylarga, o't o'chiruvchilarga, tibbiyot xodimlariga, qutqarish va tiklash ishlari bilan shug'ullanayotganlarga qo'ldan kelgancha yordam berib turish kerak.

jarohatlanganlarga yordam berish uchun tegishli joylarga xabar qilishdagina foydalaniladi. Tarmoqlarning ortiqcha yuklanishi halokat xizmatchilarining ishlashiga halaqit beradi.

11. Zarurat bo'lmasa, o'zboshimchalik bilan vayronaga aylangan joylarga kirmaslik kerak. Chunki birinchi silkinishdan so'ng yana kuchliroq zilzila bo'lib qolishi

S.E. ERGASHEV,
Zilzila bo'yicha bosh mutaxassis, geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi.
L.S. ERGASHEVA,
Chirchiq shahridagi 23-yordamchi maktabning geografiya fani o'qituvchisi.

Bizning to'garak



SHOSHIY BOBOMGA

Tabarruk Shoshiy bobom,
Shoirdirlar o'zlari.
She'rlari juda ham ko'p,
Dono, zukko so'zlari.

Bobom yozgan she'rlarin,
Barin yoddan bilaman.
Qo'llariga suv quyib,
Xizmatlarin qilaman.

«Barakalla» desalar,
Xursand bo'lib ketaman.
Bobomdan ilhom olib,
Men ham she'rlar bitaman.

Dilafro'z
MUHAMMADJONOVA,
Toshkent shahar,
Sirg'ali tumanidagi
305 - Ekolitseyning
8 - «V» sinf o'quvchisi.

VATANIM

O'zbekiston mening Vatanim,
Sadqa bo'lsin sen uchun jonim,
Yurtlar aro tengi yo'qdirsan,
Aziz yurtim O'zbekistonsan.


Saida AZLAROVA,
Poytaxtimizdagi 316 - maktabning
4 - «G» sinf o'quvchisi.

KO'Z YOSHI

Ba'zan inson kabi yig'laydi osmon,
Ona yerga to'kib ko'zin yoshini.
Chaqmoqlar chaqadi negadir shu on,
Qop-qora bulutlar uyub qoshini.

Qayg'usi borligin bilmay ko'kning ham,
Ba'zilar chin dildan qilishar havas.
Yig'lasa dunyoda eh, hamma odam,
Osmonning bir kunlik yoshiga yetmas.

Nilufar MO'MINOVA,
Toshkentdagi 272 - maktabning
7-«V» sinf o'quvchisi.



YURTIM

Yurtim, men bitmagan bir dostonsan,
Gullarga kon, bo'ston gulistonsan.
Tomirlarda qonsan, tengi yo'q dehqonsan,
Beshigim tebratgan O'zbekistonsan.
Buxoriydek alloma g'ururing bor,
Temurbekdek hoqoning, sururing bor.
Baxting bor, iqboling, kelajaging bor,
Qanot yozib, panoh bo'lgan Xumoing bor.
Seni kuylab, orom olsam degandim,
She'rlar bitib, shoir bo'lsam degandim.
Yurtimsan, baxtimsan, iqbolim o'zing,
Quchog'ingga bosh qo'yib,

kamol topsam degandim.

Feruz **USMONALI qizi,**
Toshkent viloyati,
Angren shahar Tibbiyot bilim yurti
talabasi.

MENING ISMIM
NARGIZA

Mening ismim Nargiza,
Gullarning Nargiziman.
Dadam meni erkalar,
Uning suyak qiziman.

Siz ham tashlang bir nigoh,
Ismimga mosdir jismim.
Menda joylashgan go'yo,
Borliqning go'zal qismi.

Qalbimdan chiqar xitob:
«Tug'ilganman Sijjakda!
Unga atab bir kitob,
Yozaman kelajakda».

Nargiza TURDIBOYEVA,
Toshkent viloyati,
Bo'stonliq tumanidagi
43 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.

O'ZBEKISTON

O'zbekiston bog'u bo'ston,
Osmoni tinch, hur guliston.
Xalqi ahil, do'st, inoq,
Chunki ko'ngillari oq.

O'g'lonlari jasur, mard,
Qizlari gul oshig'i.
Yurtimga yarashadi,
Tinchlik, do'stlik qo'shig'i.

G'ayrat TOSHBO'RIYEV,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumanidagi
37 - o'rta maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.

DO'STLIK AGAR
CHIN BO'LSA

Qo'shiq aytib erta-kech,
Charchamaymiz bizlar hech.
Qo'l ushlab yuramiz,
Katta davra quramiz.
Do'stlik o'zi bir billur,
Sinib qolsa tuzalmas.

Do'stlik agar chin bo'lsa,
Hech qanday kuch buzolmas.

Ziyoda MIRZAJONOVA,
Toshkentdagi
254 - maktabning
3 - «V» sinf o'quvchisi.

CHUMCHUQ
BOLALARI




Uy shiftiga chumchuqlar,
In qurishdi chiroylik.
Akam dedi:- Chumchuqning,
Bolasini uraylik.

-Yo'q,-der kichkina ukam,
Qarshi chiqib bu so'zga.
U ham ko'z yosh to'kadi,
Ko'rinmasada ko'zga.

Qoyil qolib ukamning,
Aytgan dono so'ziga.
Chiqaradi xulosa,
Akam endi o'ziga.

Muniraxon ERGASHEVA,
Farg'ona viloyati, Bag'dod
tumanidagi 3 - umumta'lim
maktabining
8 - sinf o'quvchisi.

RASMLAR KO'RGAZMASI



YOLG'ONNING «MEVASI»

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimdas, hozirgi, o'zimizning zamonda Akmal ismli bir bola bor ekan. U juda ham dangasa, ishyoqmas, injiq va qaysar bola ekan. Hatto o'z onasining aytganlarini ham qilmas ekan.

Ta'til kunlarining birida onasi unga:

- Akmaljon, ukangni bog'chaga tashlab kelgin, men ishga kech qolyapman, - debdi.

Shunda Akmal:

- E-e, o'zi tobim qochib turibdi. Nimagadir sovuq qotib ketyapman, - deb javob qilibdi.

Uning gapidan xavotirga tushgan onasi maymunjonli issiq choy ichirib, ko'rpaga o'rantiqib qo'yibdi...

Akmal esa onasi ishga ketishi bilan koptogini



ko'tarib, ko'chaga chiqib ketibdi. Qarasa, oppoq kiyimdagi bir nuroniy chol o'rtoqlariga konfet, yong'oq va olmalar ulashayotgan ekan. O'rtoqlari esa ularni paqqos tushirishardi.

- Menga ham bering, - deya ikkala qo'lini cho'zibdi Akmal dabdurustdan. Chol unga bir qarab olibdi-da, indamaygina yong'oq va konfetlardan beribdi. Olmalarni esa cho'ntaklariga solib qo'yibdi. Akmal shosha-pisha konfetni ochibdi. Qarasa, ichi bo'm-bo'sh. Yong'oqni chaqib ko'ribdi, u ham puch ekan. Olmalarini olib qarasa, qurtlab, irib ketibdi. Ularni haligi cholning oyog'i tagiga otibdi-da, bu nima qilganingiz, deb so'rabdi alam bilan. Shunda

otaxon bosiqlik bilan javob qilibdi:


-Ertalab onangga qilgan muomalang esingdami? Onangning og'irini yengil qilish o'rniga, soppa-sog' bo'la turib aldading. Yolg'onning mevasini o'zing ham bir tatib ko'r, degandim-da, - debdi-yu ko'zdan g'oyib bo'libdi...

Akmalning yumuq ko'zi ochilib ketibdi va:

- Oyijon, meni kechiring, sizni xafa qilib qo'ydim. Endi har doim aytganlaringizni qilaman, - deya kechirim so'rabdi. Onasi esa o'g'lining to'satdan o'zgarib qolganiga hayron bo'lib, yelka qisibdi.

Zamira AXROROVA,
Poytaxtimizdagi
272 - maktabning
5- «A» sinf o'quvchisi.

SKANVORD

| | | | | | | |
|--|--------------------------|--------|---|--------------------------------------|--|---------------------|
| Ko'rsatish olmoshi | | | Pichoq dastasi | | | Dorbozlar cho'pi |
| ↓ | Yaltiroq → | | | ↗ | Koptok  | ↓ |
| Palovga solinadigan meva | ↖ | | | Janubiy Amerikadagi tog' | ← | |
| ↓ | Yer haydash asbobi | | Inglizcha "door" so'zining o'zbekchasi | "Ketyapman" so'zining ruschasi | Ko'p (antonim) | ↓ |
| | Yer yo'ldoshi | Rang ↗ | | ↓ | ↓ | Mitti ot |
| Odamning teri orqali farqlanishi | ↓ | | Pokaxontas sevgan hayvon | | | Nomus |
| ↖ | | | Ko'zlanish- dan saqlaydi | → | | ↘ |

Tuzuvchi: Madina SAIDMURODOVA, Toshkent viloyati,
Parkent tumanidagi 35 - maktabning 6-sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
"Sharq" nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 11.583
nuxxada ofset usulida bosildi.
Korxonalar manzili: "Buyuk
Turon" ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-1058
Gazetani
Ma'suda IRISNAZAROVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Muharrama PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75

KITLAR HAQIDA

Dunyodagi eng yirik hayvonning nomini bilasizmi? Kit, deysizmi, juda to'g'ri. Sut emizuvchi hayvonlar guruhiga kiruvchi bu jonivorlarning fanda yuztacha turlari ma'lum ekan. Ularning ikkita - tishli va mo'ylovli



guruhi bo'lib, tishli kitlarning eng yirigi kashalotdir. Uning uzunligi 15-20 metrgacha yetishi mumkin. Tishli kitlarning yana bir turi - kosatka nisbatan kichikroq, uzunligi 8-10 metrni tashkil etadi. Ular ba'zan mo'ylovli kitlarga ham hujum qilishadi.

Mo'ylovli kitlar guruhiga yer yuzidagi eng yirik hayvon hisoblanadigan ko'k kitlar kiradi. Ularning uzunligi 33 metr, og'irligi 150 tonnagacha boradi. Bunday kit 50ta fildan ham og'irroq bo'ladi.

Yangi tug'ilgan bolasining uzunligi 6-8 metr bo'ladi va u 100 litrgacha sut etadi.

DUNYODAGI ENG BALAND FAVVORALAR

Dunyodagi eng baland favvoralar AQShning Arizona shtatida qurilgan bo'lib, ulardan birining bo'yi 160 metrni tashkil etadi. Bu favvoraning suvlarini itarib birining quvvati bo'lgan maxsus uchta nasos qurilgan.

Rustam
TURSUNOV tayyorlagan.
Toshkent shahar, Hamza
tumanidagi 204 - maktabning
9- «G» sinf o'quvchisi.

O'qi, qiziq!

